**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RAUPOV DILMUROD RASULOVICH

IKKI KOMPONENTALI BLOW-UP REJIMLI NOCHIZIQLI MUHITLARDA SONLI MODELLASHTIRISH

**05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui
(fizika-matematika fanlari)**

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

УДК: 519.957

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RAUPOV DILMUROD RASULOVICH

IKKI KOMPONENTALI BLOW-UP REJIMLI NOCHIZIQLI MUHITLARDA SONLI MODELLASHTIRISH

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui (fizika-matematika fanlari)

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.PhD/FM392 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://ik-fizmat.nuu.uz/) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Matyakubov Alisher Samandarovich** fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Normurodov Chori Begaliyevich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Seytov Aybek Jumabayevich texnika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent axborot texnologiyalari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Dsc.03/30.12.2019.FM.01.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “___”___________ soat____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “____” _______________kuni tarqatildi.

(2023-yil “____” _______________ dagi № ___-raqamli reestr bayonnomasi).

M.M.Aripov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

Z.R.Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d., dotsent

B.F.Abduraximov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahon miqyosida blow-up rejimli jarayonlar va sistemalarga bag‘ishlangan tadqiqotlar dolzarb hamda zarur hisoblanadi. Bunday jarayonlarning matematik modellari xususiy hosilali nochiziqli differensial tenglamalar sistemasi bilan ifodalanadi va yonish jarayonlari (qattiq va suyuq yonuvchilarning alangalanish modellari), issiqlik yadroviy lazerli sintez, nochiziqli to‘lqinlar nazariyasi, issiqlik diffuziya jarayonlari, filtratsiya kabi masalalarning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Shu sababli ikki komponentali blow-up rejimli nochiziqli muhitlarda matematik modellarni tadqiq etish, samarali sonli yechish sxemalari va algoritmlarini qurish hamda ularning dasturiy ta’minotini yaratish amaliy matematikaning muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda jahonda nodivergent ko‘rinishdagi parabolik tipdagi tenglamalar sistemalari bilan tavsiflanuvchi diffuzion jarayonlarning matematik modellari keng tadqiq etilmoqda. Bunday diffuziya jarayonlarining matematik modellari yonish nazariyasida qattiq va suyuq yonuvchilarning alangalanish, nochiziqli issiqlik o‘tkazuvchanlik, gaz va suyuqliklar filtratsiyasi, biologik populyatsiya jarayonlarining kechishini ochib berishda keng qo‘llanib kelinmoqda. Shu sababli blow-up rejimli turli nochiziqli matematik modellarning yangi sifat xossalarini aniqlash asosida sonli yechish sxemalari, algoritmlari va dasturiy ta’minotini yaratish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega bo‘lgan biologik, biofizik, kimyoviy va seysmologik jarayonlarni matematik modellashtirish, sonli usullarini ishlab chiqish kabi dolzarb yo‘nalishlariga katta e’tibor qaratib kelinmoqda. Bu borada nochiziqli to‘lqin tarqalishi, mexanikada g‘ovak tuproqdagi filtrlash, tibbiyotda mayda qon tomirlarida qonning harakatlanishi, issiqlik tarqalishi, biologik populyatsiyaning o‘sishi va ko‘chishi kabi jarayonlarni matematik modellashtirish, nochiziqli matematik modellarga xos effektlarni aniqlash va sonli-analitik yechish usullarini ishlab chiqish bo‘yicha salmoqli natijalarga erishildi. “Funksional analiz, algebra, differensial tenglamalar, matematik fizika, matematik modellashtirish, hisoblash matematikasi va diskret matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika”[1] kabi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish vazifalari belgilab berildi. Ikki komponentali blow-up rejimli nochiziqli muhitda parabolik tipdagi nodivergent tenglamalar sistemalari orqali ifodalanuvchi nochiziqli matematik modellarining tadqiq etilishi va amaliyotga tatbiq qilish yuzasidan quyidagi yo‘nalishlardagi ilmiy tadqiqot izlanishlarini amalga oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi: nochiziqli parabolik tipdagi nodivergent tenglamalar sistemalarining blow-up xossalarini o‘rganish usullarini ishlab chiqish; turli fazolarda yechim asimptotikalarini topish; blow-up yechimlar baholarini aniqlash; blow-up jarayonlarning matematik modellarini o‘rganishga yordam beruvchi amaliy dasturlar majmuini yaratish; jarayonlarni vaqt bo‘yicha kechishini

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli qarori (Manba: https://lex.uz/docs/4807552).

nazorat qilish. Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlar yo‘nalishida bajarilayotgan ilmiy izlanishlar mazkur dissertatsiya mavzusining dolzarbligini izohlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 27-apreldagi PQ-3682-son “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Blow-up rejim bo‘yicha ilk marotaba qo‘yilgan muammolar XX asrning o‘rtalarida Zeldovich, Barenblatt va Librovichning yonish nazariyalaridan boshlangan. A.A.Samarskiy, A.S.Kalashnikov, V.A.Galaktionov, A.P.Mixaylov, B.I.Barenblatt, J.L.Lions, Daniela Giachetti, Pan Zheng, J.Vazgues, Ansgar Jüngel, L.Rossi, Juntang Ding va boshqa olimlarning ishlarida yechimning vaqt bo‘yicha chegaralanmaganligi (blow up), issiqlik tarqalish tezligining chekliligi hodisasi va issiqlik tarqalishining fazoviy lokallashishi, manba va yutilish ta’sirida nochiziqli muhitlardagi chekli vaqtda ko‘chishning mavjud bo‘lish xossalari aniqlangan. Yechim asimptotikalarini o‘rganish bo‘yicha Wiegner M., Winkler M., Gage E., Angenent S., Jin Ch., Yin J., Yunzhu Gao, Qiu Meng, Yingjia Guo, Zhi-wen Duan, Li Zhou; nodivergent tenglama va tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasi global yechimlar mavjudligi, blow-up yechimlarni tadqiq etish bo‘yicha Deng W., Li Y., Xie Ch., Lu H., Duan Z., Zhou L., Wang M., Wei Y., Sun Y., Shi Y., Wu M., Huiling Li, Yang Zhang, Koichi Anada, Juntang Ding, Shengjia Li va boshqalar shug‘ullanishgan.

Mamlakatimizda turli xil jarayonlarni ifodalaydigan matematik modellarning yangi xossalarini tadqiq qilish va sonli yechish bilan N.Muxitdinov, M.M.Aripov, B.X.Xujayorov, A.S.Rasulov, N.Ravshanov, N.Uteuliyev, A.Haydarov, Z.R.Raxmonov, Sh.A.Sadullayeva, A.S.Matyakubov, D.K.Muxamediyeva va ularning shogirdlari shug‘ullanishgan. Ularning asosiy ishlari diffuziya nochiziqli tenglamalar sistemasini yechish masalasini sonli tadqiq etishga bag‘ishlangan bo‘lib, ularni issiqlik o‘tkazuvchanlik, filtratsiya, diffuziya, biologik populyatsiya jarayonlarini modellashtirish masalalariga tatbiq etish mumkin.

Nodivergent tenglama va tenglamalar sistemasiga oid ilmiy ishlar bilan M.Aripov, Sh.Sadullayeva, A.Matyakubov, D.Muxammadiyeva, J.Raimbekov, M.Xojimurodovalar shug'ullanishgan. Ular tomonidan avtomodel tahlil asosida tabiatshunoslikning turli sohalarida uchraydigan jarayonlarni ifodalovchi nochiziqli masalalar yechimlarining sifat xossalari tadqiq etilgan va sonli yechilgan. Nochiziqli diffuzion jarayonlarni modellashtirish, blow-up yechimlarni o'rganish bo'yicha olingan natijalar hamda mavjud usul va algoritmlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nochiziqli jarayonlarni modellashtirish nazariy va amaliy masalalarini yanada chuqurroq hamda to'liq tadqiq etish usullarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlar rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, OT-F4-30 "Ikki marta nochiziqli kross sistemaning konvektiv ko'chish, o'zgaruvchan zichlik, manba yoki yutish ta'siridagi sifat xossalarini tadqiq qilish" (2017-2020-yillar) mavzularidagi ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi manbaga ega bir jinsli bo'lmagan muhitlarda nochiziqli parabolik tipdagi nodivergent tenglamalar sistemalari bilan ifodalanuvchi jarayonlarning nochiziqli matematik modellarining blow-up xossalarini sonli va analitik tadqiq etish, issiqlik diffuziyasi va yonish jarayonlari masalalarini sonli yechish uchun dasturiy ta'minotini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

issiqlik diffuziyasi va yonish jarayonlarining matematik modellari uchun blow-up yechimga ega bo'lish shartlarini topish;

issiqlik diffuziyasi va yonish masalalarining avtomodel yechimlari asimptotikalarini olish;

issiqlik diffuziyasi va yonish jarayonlari matematik modellarining sifat xossalarini tadqiq qilish uchun sonli yechish sxemalarini qurish;

qo'yilgan masalani yechish uchun dasturiy ta'minotini yaratish hamda blow-up xossaga ega yechimlar grafigini vizuallashtirish.

Tadqiqotning obyekti parabolik tipdagi nodivergent tenglamalar sistemalari bilan ifodalanuvchi nochiziqli issiqlik diffuziyasi va yonish jarayonlaridan iborat.

Tadqiqotning predmeti nochiziqli issiqlik diffuziyasi va yonish jarayonlarining matematik modellari, sonli sxemalar, sonli yechish algoritm va dasturiy ta'minotlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada avtomodel va taqribiy avtomodel, yechimlarni taqqoslash teoremalari, nochiziqli differensial tenglamalarni yechish uchun etalon tenglamalar, sonli sxemalarni tuzishning ayirmali, iteratsiya, haydash, chiziqlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bir jinsli bo'lmagan muhitda parabolik tipdagi nodivergent tenglamalar sistemasi uchun Koshi masalasining yechimlari uchun taqqoslash teoremalari yordamida quyi va yuqori baholar olingan;

blow-up rejimli muhitda parabolik tipdagi nodivergent tenglamalar sistemasi uchun nochiziqli ajratish usulidan foydalanib Koshi masalasining avtomodel yechimlari asimptotikalari olingan;

issiqlik diffuziyasi va yonish jarayonlarining matematik modellari uchun blow-up hamda global yechimlarga ega bo‘lish shartlari avtomodel tahlil va taqqoslash teoremasi asosida isbotlangan;

issiqlik diffuziyasi va yonish jarayonlarini ifoda etuvchi chegaraviy shartlar bilan berilgan parabolik tipdagi nodivergent tenglamalar sistemasi uchun blow-up yechim baholari qurilgan;

issiqlik diffuziyasi va yonish jarayonlari masalalarida portlash vaqti uchun maksimum tamoyillari asosida baholar olingan;

muhitning sonli parametrlari qiymatlari asosida sonli yechimlar olishda iteratsion jarayon uchun boshlang‘ich yaqinlashishni qurish masalasi yechilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yonish va issiqlik diffuziyasi jarayonlarida vujudga keladigan nochiziqli masalalarni yechish uchun asimptotik formulalar qurilgan;

yonish va issiqlik diffuziyasining nochiziqli masalalari uchun sonli yechimlar qurilgan hamda dasturlar majmui yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishida olingan natija va tasdiqlar taqqoslash teoremalari hamda maksimum prinsipi asosida qat’iy isbotlangani va sonli tadqiqotlar natijalari bilan tasdiqlangani hamda etalon tenglamalar usuli va nochiziqli effektlarni saqlagan holda avtomodel tahlilga asoslangan hisoblash metodlarining to‘g‘riligini hamda samaradorligini tasdiqlagani bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, shunga o‘xshash masalalarni yechishda Koshi masalasi va nochiziqli matematik modellar blow-up yechimlarining mavjudligi nazariyasini qo‘llash hamda olingan natijalardan kimyoviy kinetikada moddalarning tez birikish, yonish jarayonlarini avtokatalitik reaksiya (qattiq va suyuq yonuvchilarning alangalanish) modellarini, kuchsiz magnit maydonlarida rezistiv diffuziya hodisalari nochiziqli modellarini sonli va analitik yechishda qo‘llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati iteratsion jarayonlar qurilgani, sonli hisoblash sxemasi va dasturiy ta’minot yaratilgani, ulardan nochiziqli issiqlik o‘tkazuvchanlik, kimyoviy kinetikada moddalarning tez birikish, yonish jarayonlarida qattiq va suyuq yonuvchilarning alangalanish modellari uchun samarali hisoblash tajribalarini o‘tkazishga imkon berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ikki komponentli blow-up rejimli nochiziqli muhitlarda issiqlik diffuziyasi va yonish jarayonlari masalalarini sonli hamda analitik yechish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar amaliyotda quyidagi yo‘nalishlarda joriy etilgan:

issiqlik diffuziyasi va yonish jarayonlarini matematik modellari uchun blow-up hamda global yechimlar, sonli yechish algoritmlari va usullari, iteratsion jarayon uchun boshlang‘ich yaqinlashish hamda ishlab chiqilgan dasturiy ta’minoti natijalaridan PZ-202008061-sonli “Yangi avlod oligomer antipirenlarni qo‘llab yog‘och qurilish materiallari va buyumlarining olovbardoshligini oshirish resurs tejamkor texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (“O‘zkimyosanoat” AJ Toshkent kimyo texnologiyasi ilmiy tadqiqot institutining, 2022-yil 20-sentabrdagi №0410/289-sonli ma’lumotnomasi). Natijada olingan sonli natijalar bir jinsli bo‘lmagan muhitda yonuvchi materiallarning alangalanishi va portlash vaqtlarini aniqlash imkonini bergan;

bir jinsli bo‘lmagan muhitda parabolik tipdagi nodivergent tenglamalar sistemasi uchun yuqori va quyi yechimlarini qurish, ikki komponentli blow-up rejimli chiziqsiz muhitlarda sonli modellashtirish uchun progonka, sonli natijalarni vizual shaklda tasvirlash uchun dasturiy ta’minot va bir jinsli bo‘lmagan muhitda yonish hamda issiqlik diffuziyasi jarayonlarini tasvirlovchi grafik ko‘rinishdagi natijalaridan MB-ATEX-2018-58. “Yangi avlod metallorganik oligomer qo‘shimchali olovbardosh, issiqlik izolyatsiyalovchi qurilish materiallarini tadqiq etish va texnologiyasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasining 2022-yil 15-noyabrdagi №36/16-2217-sonli ma’lumotnomasi). Natijada olingan sonli natijalarning issiqlik diffuziyasi va yonish jarayonlarini sonli modellashtirish uchun amaliy dasturlar paketini yaratishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 7 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 8 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan, 1 tasi xorijiy va 7 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan, shuningdek, 2 ta EHM uchun dasturga mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Blow-up rejimli nochiziqli muhitda issiqlik diffuziyasi va yonish jarayonlarining matematik modellashtirish”** deb nomlangan birinchi bobida masalaning qo‘yilishi, dissertatsiya mavzusiga oid tadqiqotlarning qisqacha tahlili va kelgusida natijalarni yoritishga ko‘maklashuvchi yordamchi tasdiq hamda ta’riflar keltirilgan. Mazkur jarayonlarning avtomodel yechimlar orqali ifodalanuvchi modellarining xossalari tadqiq qilingan. Shuningdek, sonli eksperiment natijalari va ularning tahlili bayon etilgan.

1.3-paragraf nochiziqli muhitda issiqlik diffuziyasi va yonish jarayonlarini modellashtiruvchi parabolik tipdagi tenglamalar sistemasi uchun quyidagi Koshi masalasi avtomodel yechimlar asimptotikasi tadqiqiga bag‘ishlangan:

$$\frac{\partial u}{\partial t}=v^{\alpha_1}\nabla\left(u^{m_1-1}\nabla u\right)+u^{\beta_1},\qquad \frac{\partial v}{\partial t}=u^{\alpha_2}\nabla\left(v^{m_2-1}\nabla v\right)+v^{\beta_2},\tag{1}$$

$$u|_{t=0}=u_0\left(x\right)\geq 0,\ \ v|_{t=0}=v_0\left(x\right)\geq 0,\ \ x\in R^N\tag{2}$$

бу yerda, $\nabla(\cdot)=grad_x(\cdot)$, $\alpha_1,\alpha_2,m_1,m_2,\beta_1,\beta_2$ – haqiqiy musbat sonlar, $N\geq 1$ – fazo o‘lchovi, $u=u(t,x)\geq 0,\ v=v\left(t,x\right)\geq 0$ – izlanayotgan yechimlar.

Ma’lumki, (1) sistema sonli parametrlari qiymatlariga bog‘liq holda turli jarayonlarni ifodalaydi: biologik tur diffuziyasi, kuchsiz magnit maydonlarida rezistiv diffuziya hodisalari, infeksion kasalliklar tarqalishi, diffuzion yonish jarayonlarini va boshqalar. (1) tenglamalar $u=0,v=0$ yoki $\nabla u=0,\nabla v=0$ bo‘ladigan sohada buziluvchi bo‘lib, klassik ma’noda yechimga ega bo‘lmasligi mumkin. Bunday holatlarda (1) tenglamalar sistemasi uchun umumlashgan yechimlar izlanadi va o‘rganiladi.

Yechimni quyidagi ko‘rinishda izlaymiz:

$$u\left(t,x\right)=(T-t)^{q_1}\,\mathrm{w}\left(\tau(t),\mathrm{r}\right),\ v\left(t,x\right)=(T-t)^{q_2}\,\varphi\left(\tau(t),\mathrm{r}\right),\ r=\left|x\right|\tag{3}$$

$$q_1=-\frac{1}{\beta_1-1},\ \mathrm{q}_2=-\frac{1}{\beta_2-1},\ \ \tau(t)=\begin{cases}\int(\mathrm{T-t})^{\frac{m_1-1}{1-\beta_1}+\frac{\alpha_1}{1-\beta_2}}dt, & \dfrac{m_1-1}{1-\beta_1}+\dfrac{\alpha_1}{1-\beta_2}+1\neq 0\\ Ln(\mathrm{T-t}), & \dfrac{m_1-1}{1-\beta_1}+\dfrac{\alpha_1}{1-\beta_2}+1=0\end{cases}$$

$$w(\tau,x)=f(\xi),\quad \varphi(\tau,x)=\phi(\xi),\quad \xi=\left|x\right|\tau^{-\frac{1}{2}}$$

$f(\xi),\ \ \phi(\xi)$ funksiyalar esa quyidagi avtomodel masalaning yechimi bo‘ladi:

$$\begin{aligned}&\varphi^{\alpha_1}\xi^{1-N}\frac{d}{d\xi}\left(\xi^{N-1}f^{m_1-1}\frac{df}{d\xi}\right)+\frac{\xi}{2}\frac{df}{d\xi}-b_1\left(f^{\beta_1}+f\right)=0,\\ &\varphi^{\alpha_2}\xi^{1-N}\frac{d}{d\xi}\left(\xi^{N-1}f^{m_2-1}\frac{df}{d\xi}\right)+\frac{\xi}{2}\frac{df}{d\xi}-b_2\left(f^{\beta_2}+f\right)=0,\end{aligned}\tag{4}$$

bu yerda, $b_i=\dfrac{q_i}{q_i(\mathrm{m}_i-1)+q_{3-i}\alpha_i},\quad i=1,2$

$$f'\left(0\right)=0,\ \phi'\left(0\right)=0,\ f\left(\infty\right)=0,\ \phi\left(\infty\right)=0\tag{5}$$

Quyidagi almashtirish bajaramiz:

$$f\left(\xi\right)=\overline{f}(\xi)\,\mathrm{y}_1(\eta),\ \phi\left(\xi\right)=\overline{\phi}(\xi)\,\mathrm{y}_2(\eta)$$

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz: $b_{i1}(\eta)=\left(\dfrac{N}{2}-1+p_im_i\right)\mathrm{p}_i,\quad b_{i2}(\eta)=\dfrac{p_i-b_i}{4},$

$$c_{i1}(\eta)=\left(p_i m_i-1\right)\mathrm{p}_i, c_{i2}(\eta)=-\frac{p_i}{4}, c_{i3}(\eta)=\frac{-b_i}{4a}, (i=1,2)$$

Tez diffuziya holi. $p_i<0$. Quyidagi funksiyalar

$$\bar{f}\left(\xi\right)=A\left(a+\xi^2\right)^{p_1}, \ \bar{\phi}\left(\xi\right)=B\left(a+\xi^2\right)^{p_2}, A>0, B>0, \mathrm{a}>0, \eta=\ln\left(a+\xi^2\right),$$

(5) shartni qanoatlantiradi, bu yerda $p_i=\dfrac{m_{3-i}-\alpha_i-1}{(m_1-1)(m_2-1)-\alpha_1\alpha_2}$.

Faraz qilaylik $q_1(m_1-1)+q_2\alpha_1=q_2(m_2-1)+q_1\alpha_2$ tenglik bajarilsin. U holda quyidagi teorema o‘rinli:

1-teorema. Aytaylik, $\beta_i>1, p_i<0 \ (i=1,2)$ va $q_1(m_1-1)+q_2\alpha_1+1>0$ bo‘lsin. U holda (1)-(2) masalaning yechimlari $\xi\to\infty$ da quyidagi asimptotik ifodaga ega

$$u(t,x)=\left(T-t\right)^{q_1}\left(a+\xi^2\right)^{p_1}\mathrm{y}_1(\eta), \ v(t,x)=\left(T-t\right)^{q_2}\left(a+\xi^2\right)^{p_2}\mathrm{y}_2(\eta),$$

bu yerda $y_i(\eta)=y_i^0+o(1), 0<y_i^0<+\infty, (i=1,2)$ va $y_i^0, (i=1,2)$ mos ravishda $z_i, (i=1,2)$ nochiziqli algebraik tenglamalar sistemasining yechimi

$$b_{i1}z_i^{m_i-1}z_{3-i}^{\alpha_i}+b_{i2}=0, \ (i=1,2)$$

Sekin diffuziya holi. Faraz qilaylik, (4) tenglamalar sistemasi uchun quyidagi shart bajarilsin.

$$f'\left(0\right)=0, \phi'\left(0\right)=0, f\left(\infty\right)=\infty, \phi\left(\infty\right)=\infty \qquad (6)$$

Quyidagi funksiyalar

$$\bar{f}\left(\xi\right)=A\left(a-\xi^2\right)^{p_1}, \ \bar{\phi}\left(\xi\right)=B\left(a-\xi^2\right)^{p_2}, A>0, B>0, \mathrm{a}>0, \eta=-\ln\left(a-\xi^2\right),$$

(6) shartni qanoatlantiradi, bu yerda $p_i=\dfrac{m_{3-i}-\alpha_i-1}{(m_1-1)(m_2-1)-\alpha_1\alpha_2}$.

U holda (4) sistema quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$\mathrm{y}_{3-i}^{\alpha_i}\frac{d}{d\eta}\left(Ly_i\right)+a_{i1}(\eta)\,\mathrm{y}_{3-i}^{\alpha_i}\,Ly_i+a_{i2}\left(a_{i0}y_i+\frac{dy_i}{d\eta}\right)+a_{i3}(\eta)\,\mathrm{y}_i+a_{i4}(\eta)y_i^{\beta_i}=0, \qquad (7)$$

bu yerda, $a_{i0}(\eta)=-\mathrm{p}_i$, $a_{i1}(\eta)=\dfrac{Ne^{-\eta}}{2(e^{-\eta}-a)}-1+p_im_i$, $a_{i2}(\eta)=\dfrac{1}{4}$, $\mathrm{a}_{i3}(\eta)=-\dfrac{b_i^{-\eta}}{4(e^{-\eta}-a)}$,

$$\mathrm{a}_{i4}(\eta)=-\frac{b_ie^{-s_i\eta}}{4(e^{-\eta}-a)}, \quad \mathrm{Ly}_i=y_i^{m_i-1}\left(\frac{dy_i}{d\eta}-p_iy_i\right), \ s_i=p_i(\beta_i-1)+1, \ (i=1,2)$$

2-Teorema. Faraz qilaylik, $q_1(m_1-1)+q_2\alpha_1+1>0$ bo‘lsin. U holda (7) sistemaning $y_i(\eta)=y_i^0+o(1), \eta\to\infty, \ (0<y_i^0<+\infty, \ (i=1,2))$ ko‘rinishdagi $\left(\mathrm{y}_1(\eta), \mathrm{y}_2(\eta)\right)$ yechimi mavjud bo‘lishi uchun quyidagi shartlardan birining bajarilishi zarur:

1. $p_i=\dfrac{1}{1-\beta_i}$, $y_i^0, (i=1,2)$ – nochiziqli algebraik tenglamalar

$$c_{i1}z_i^{m_i-1}z_{3-i}^{\alpha_i}+c_{i2}+c_{i3}z_i^{\beta_i-1}=0, \ (i=1,2)$$

sistemasining mos ravishda $z_i, (i=1,2)$ yechimlari.

2. $p_i < \dfrac{1}{1-\beta_i},\ p_i m_i > 1,\ y_i^0, (i=1,2)$ – nochiziqli algebraik tenglamalar

$$c_{i1} z_i^{m_i-1} z_{3-i}^{\alpha_i} + c_{i2} = 0,\ (i=1,2)$$

sistemasining mos ravishda $z_i, (i=1,2)$ yechimlari.

3. $p_1 = \dfrac{1}{1-\beta_1},\ p_2 < \dfrac{1}{1-\beta_2},\ p_2 m_2 > 1,\ y_i^0, (i=1,2)$ – nochiziqli algebraik

$$\begin{cases} c_{11} z_1^{m_1-1} z_2^{\alpha_1} + c_{i2} + c_{i3} z_1^{\beta_1-1} = 0 \\ c_{21} z_2^{m_2-1} z_1^{\alpha_2} + c_{22} = 0 \end{cases}$$

tenglamalar sistemasining mos ravishda $z_i, (i=1,2)$ yechimlari

4. $p_1 < \dfrac{1}{1-\beta_1},\ p_2 = \dfrac{1}{1-\beta_2},\ p_1 m_1 > 1,\ y_i^0, (i=1,2)$ – nochiziqli algebraik

$$\begin{cases} c_{11} z_1^{m_1-1} z_2^{\alpha_1} + c_{12} = 0 \\ c_{21} z_2^{m_2-1} z_1^{\alpha_2} + c_{22} + c_{23} z_2^{\beta_2-1} = 0 \end{cases}$$

tenglamalar sistemasining mos ravishda $z_i, (i=1,2)$ yechimlari.

1-natija. (1)-(2) masalaning umumlashgan yechimi $|x| \to a^{\frac{1}{2}} \tau^{\frac{1}{2}}$ da quyidagi asimptotik ifodaga ega

$$u_A(t,x) = z_1 \left(T-t\right)^{q_1} \left(a - |x|^2 \tau^{-1}\right)^{p_1} (1+o(1)),\ v_A(t,x) = z_2 \left(T-t\right)^{q_2} \left(a - |x|^2 \tau^{-1}\right)^{p_2} (1+o(1))$$

bu yerda $z_1, z_2, \mathrm{p}_1, \mathrm{p}_2, \mathrm{q}_1, \mathrm{q}_2$ – aniqlangan o‘zgarmaslar.

Olingan natijalar erkin chegara uchun quyidagi baho o‘rinli ekanligini ko‘rsatadi: $|x(t)| \le \left[\dfrac{a}{b}\right]^{\frac{1}{2}} \left(T-t\right)^{\frac{b}{2}}$, bu yerda $b = q_1(m_1-1) + q_2\alpha_1 + 1.$

1.4-paragrafda (1) masala uchun ayirmali sxema ishlab chiqilgan va hisoblash eksperimenti o‘tkazilgan. Hisoblash uchun $h = 0,02$ qadam tanlangan hamda iteratsiya aniqligi sifatida $\varepsilon = 10^{-3}$ olingan. Boshlang‘ich yaqinlashish

$u_0\left(x\right) = \bar{u}(0) f_A\left(\xi\right),\ v_0\left(x\right) = \bar{v}(0) \varphi_A\left(\xi\right)$ ko‘rinishda olingan,

bu yerda $f_A\left(\xi\right) = A\left(a \pm \xi^2\right)_+^{p_1},\ \varphi_A\left(\xi\right) = B\left(a \pm \xi^2\right)_+^{p_2}, \bar{u}(0) = T^{-\frac{1}{\beta_1-1}},\ \bar{v}(0) = T^{-\frac{1}{\beta_2-1}},$

$$\xi = \phi(x)\left[\tau(0)\right]^{-\frac{1}{2}},\quad \phi(x) = |x|,\quad \tau\left(0\right) = \frac{1}{q_1(m_1-1)+q_2\alpha_1+1} T^{q_1(m_1-1)+q_2\alpha_1+1},$$

$$p_i = \frac{m_{3-i} - \alpha_i - 1}{\left(m_1-1\right)\left(m_2-1\right) - \alpha_1\alpha_2},\ i = 1,2.$$

Sonli parametr qiymatlari turli bo‘lganda sonli tajriba ayrim natijalari keltirilgan.



1-rasm. (1) masalaning sonli yechish natijalari (sekin diffuziya).



2-rasm. (1) masalaning sonli yechish natijalari (tez diffuziya).

Bu grafiklarda hisoblash eksperementlari yordamida parametrlarning turli sonli qiymatlarida blow-up yechimlari ko‘rsatilgan. Tanlangan boshlang‘ich yaqinlashish yaxshi bo‘lgani uchun analitik nuqtayi nazardan blow-up yechimlar sonli yechimda ham o‘z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zgaruvchan zichlikka ega blow-up rejimli issiqlik diffuziyasi va yonish jarayonlarini matematik modellashtirish”** nomli ikkinchi bobida o‘zgaruvchan zichlikka ega nochiziqli issiqlik diffuziyasi va yonish jarayonlari masalalarining matematik modellari tahlil qilingan. Mazkur jarayonlarning avtomodel yechimlar orqali ifodalanuvchi modellarining xossalari va asimptotikalari o‘rganilgan. Shuningdek, sonli eksperiment natijalari va ularning tahlili keltirilgan.

2.1-paragraf quyidagi masala yechimining sifat xossalarini tadqiq etishga bag‘ishlangan.

$$\begin{aligned} |x|^{-l}\frac{\partial u}{\partial t} &= v^{\alpha_1}\nabla\left(|x|^n u^{m_1-1}\nabla u\right)+|x|^{-l}u^{\beta_1}, \\ |x|^{-l}\frac{\partial v}{\partial t} &= u^{\alpha_2}\nabla\left(|x|^n v^{m_2-1}\nabla v\right)+|x|^{-l}v^{\beta_2}, \end{aligned} \qquad (8)$$

$$u|_{t=0}=u_0(x)\ge 0,\ \ v|_{t=0}=v_0(x)\ge 0,\ \ x\in R^N, \qquad (9)$$

bu yerda $\nabla(\cdot)=grad_x(\cdot)$, $m_1, m_2, \alpha_1, \alpha_2, \beta_1, \beta_2, n, l$ – haqiqiy musbat sonlar, $N\ge 1$ - fazo o‘lchovi, $u=u(t,x)\ge 0,\ v=v(t,x)\ge 0$ – izlanayotgan yechimlar.

(8) masala uchun avtomodel sistema nochiziqli ajratish algoritmi yordamida quriladi, buning uchun sistemaning avtomodel yechimlari quyidagi ko‘rinishda izlanadi: $u(t,x)=(T-t)^{q_1} f_1(\xi),\ v(t,x)=(T-t)^{q_2} f_2(\xi)$ (10)

$$q_1=-\frac{1}{\beta_1-1},\ q_2=-\frac{1}{\beta_2-1}$$

$$\xi=\frac{|x|^{\frac{2-l-n}{2}}}{\tau^{\frac{1}{2}}\left(1-\frac{l+n}{2}\right)},\ \ \tau(t)=\begin{cases}\int (T-t)^{\frac{m_1-1}{1-\beta_1}+\frac{\alpha_1}{1-\beta_2}}dt, & \frac{m_1-1}{1-\beta_1}+\frac{\alpha_1}{1-\beta_2}+1\ne 0\\ Ln(T-t), & \frac{m_1-1}{1-\beta_1}+\frac{\alpha_1}{1-\beta_2}+1=0\end{cases}$$

$f_1(\xi),\quad f_2(\xi)$ funksiyalar esa quyidagi avtomodel masalaning yechimi bo‘ladi:

$$\begin{aligned} & f_2^{\alpha_1}\xi^{1-s}\frac{d}{d\xi}\left(\xi^{s-1}f_1^{m_1-1}\frac{df_1}{d\xi}\right)+\frac{\xi}{2}\frac{df_1}{d\xi}+b_1\left(f_1^{\beta_1}-\frac{1}{\beta_1-1}f_1\right)=0, \\ & f_1^{\alpha_2}\xi^{1-s}\frac{d}{d\xi}\left(\xi^{s-1}f_2^{m_2-1}\frac{df_2}{d\xi}\right)+\frac{\xi}{2}\frac{df_2}{d\xi}+b_1\left(f_2^{\beta_2}-\frac{1}{\beta_1-1}f_2\right)=0, \end{aligned} \tag{11}$$

bu yerda, $s=\dfrac{2(N-l)}{2-l-n},\ b_i=\dfrac{q_i}{q_i(\mathrm{m}_i-1)+q_{3-i}\alpha_i},\quad i=1,2$.

3-teorema. Quyidagi shartlar bajarilsin: $q_{3-i}\alpha_i+q_i\left(m_i-1\right)+1<0$, $\beta_i<1,\ s\ge 0,\ u_+\left(0,x\right)\ge u_0\left(x\right),\ v_+\left(0,x\right)\ge v_0\left(x\right),\ x\in R^N$. U holda (8), (9) masala yechimi uchun $u\left(\mathrm{t},x\right)\le u_+\left(\mathrm{t},x\right), v\left(\mathrm{t},x\right)\le v_+\left(\mathrm{t},x\right)$ baho o‘rinli bo‘ladi,
bu yerda

$$u_+\left(t,x\right)=A_1(T-t)^{q_1}\left(a-\frac{|x|^{2-l-n}}{\tau\left(1-\frac{l+n}{2}\right)^2}\right)^{p_1},\ v_+\left(t,x\right)=A_2(T-t)^{q_2}\left(a-\frac{|x|^{2-l-n}}{\tau\left(1-\frac{l+n}{2}\right)^2}\right)^{p_2}$$

$$p_i=\frac{1+\alpha_i-m_{3-i}}{\alpha_i\alpha_{3-i}-(m_{3-i}-1)(m_i-1)}\qquad A_i=\left(\frac{p_{3-i}}{p_i^{\frac{m_{3-i}-1}{\alpha_i}}}\right)^{-\frac{\alpha_i}{\alpha_1\alpha_2-(m_i-1)(m_{3-i}-1)}},\ i=1,2$$

4-Teorema. Quyidagi shartlar bajarilsin: $q_{3-i}\alpha_i+q_i\left(m_i-1\right)+1>0$,

$A_i^{m_i-1}A_{3-i}^{\alpha_i}s\le\dfrac{b_i}{1-\beta_i}$, $\quad A_i^{m_i-1}A_{3-i}^{\alpha_i}s\le\dfrac{b_i}{1-\beta_i},(i=1,2),\quad u_-\left(0,x\right)\le u\left(0,x\right)$,

$v_-\left(0,x\right)\le v\left(0,x\right),x\in R^N$ U holda (8), (9) masala yechimi uchun $u_-\left(t,x\right)\le u\left(t,x\right),v_-\left(t,x\right)\le v\left(t,x\right),x\in R^N$ baho o‘rinli bo‘ladi, bu yerda

$$u_-\left(t,x\right)=A_1(T-t)^{q_1}\left(a+\frac{|x|^{2-l-n}}{\tau\left(1-\frac{l+n}{2}\right)^2}\right)^{p_1},\ v_-\left(t,x\right)=A_2(T-t)^{q_2}\left(a+\frac{|x|^{2-l-n}}{\tau\left(1-\frac{l+n}{2}\right)^2}\right)^{p_2}$$

$p_i,A_i,\ i=1,2$ – aniqlangan o‘zgarmaslar.

2.2-paragraf issiqlik diffuziyasi va yonish jarayonini modellashtiruvchi parabolik tipdagi nochiziqli nodivergent tenglamalar sistemasi uchun avtomodel yechimlar asimptotikasi tadqiqiga bag‘ishlangan.

(8) sistema avtomodel yechimining asimptotik ifodasi va sonli parametrlariga bog‘liq holda ular mavjudligining zaruriy hamda yetarli shartlari topilgan.

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$c_{i1}(\eta)=\left(\frac{s}{2}-1+p_i m_i\right)\mathrm{p}_i,\quad c_{i2}(\eta)=\frac{A_i^{1-m_i}A_{3-i}^{-\alpha_i}p_i}{4}-\frac{b_i}{4(\beta_i-1)}$$

5-teorema. Faraz qilaylik, $q_{3-i}\alpha_i+q_i\left(m_i-1\right)+1>0$ va $\beta_i>1,\ p_i<0$ yoki $\beta_i<1,\ p_i>0\,(i=1,2)$ bo‘lsin. U holda (8) sistemaning yechimlari $\xi\to\infty$ da quyidagi asimptotik ifodaga ega:

$$u(t,x)=A_1\left(T-t\right)^{q_1}\left(a+\xi^2\right)^{p_1}\mathrm{y}_1(\eta),\ v(t,x)=A_2\left(T-t\right)^{q_2}\left(a+\xi^2\right)^{p_2}\mathrm{y}_2(\eta)$$

bu yerda $y_i(\eta)=y_i^0+o(1),\ 0<y_i^0<+\infty$ va $y_i^0,(i=1,2)$ nochiziqli algebraik tenglamalar $c_{i1}z_i^{m_i-1}z_{3-i}^{\alpha_i}+c_{i2}=0,\ (i=1,2)$ sistemasining mos ravishda $z_i,(i=1,2)$ yechimlari.

(11) sistemaning quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi yechimlarini qaraylik:

$$f'\left(0\right)=0,\ \phi'\left(0\right)=0,\ f\left(d\right)=0,\ \phi\left(d\right)=0,\quad d<\infty$$

$$f\left(\xi\right)=\overline{f}(\xi)\,\mathrm{y}_1(\eta),\ \phi\left(\xi\right)=\overline{\phi}(\xi)\,\mathrm{y}_2(\eta)$$

$$\overline{f}\left(\xi\right)=\left(a-\xi^2\right)^{p_1},\ \overline{\phi}\left(\xi\right)=\left(a-\xi^2\right)^{p_2},\ \mathrm{a}>0,\eta=-\ln\left(a-\xi^2\right),$$

U holda (11) sistema quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$\mathrm{y}_{3-i}^{\alpha_i}\frac{d}{d\eta}\left(Ly_i\right)+a_{i1}(\eta)\,\mathrm{y}_{3-i}^{\alpha_i}Ly_i+a_{i2}\left(\frac{dy_i}{d\eta}+a_{i0}y_i\right)+a_{i3}(\eta)\,\mathrm{y}_i+a_{i4}(\eta)y_i^{\beta_i}=0 \qquad (12)$$

Bu yerda a_{ij} ifodasi aniqlangan funksiyalar.

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$d_{i1}(\eta)=\left(p_i m_i-1\right)\mathrm{p}_i,\quad d_{i2}(\eta)=-\frac{A_i^{1-m_i}A_{3-i}^{-\alpha_i}p_i}{4},\ d_{i3}(\eta)=\frac{b_i A_i^{1-m_i}A_{3-i}^{-\alpha_i}}{4a},(i=1,2)$$

6-teorema. Faraz qilaylik, $q_{3-i}\alpha_i+q_i\left(m_i-1\right)+1>0$ bo‘lsin. U holda (12) sistemaning $y_i(\eta)=y_i^0+o(1),\eta\to\infty,\ (0<y_i^0<+\infty,\ (i=1,2))$ ko‘rinishdagi $\left(\mathrm{y}_1(\eta),\ \mathrm{y}_2(\eta)\right)$ yechimi mavjud bo‘lishi uchun quyidagi shartlardan birining bajarilishi zarur:

1. $p_i=\dfrac{1}{1-\beta_i},\ y_i^0,(i=1,2)$ – nochiziqli algebraik tenglamalar

$$d_{i1}z_i^{m_i-1}z_{3-i}^{\alpha_i}+d_{i2}+d_{i3}z_i^{\beta_i-1}=0,\ (i=1,2)$$

sistemasining mos ravishda $z_i,(i=1,2)$ yechimlari.

2. $p_i<\dfrac{1}{1-\beta_i},\ p_i m_i>1,\ y_i^0,(i=1,2)$ – nochiziqli algebraik tenglamalar

$$c_{i1}z_i^{m_i-1}z_{3-i}^{\alpha_i}+c_{i2}=0,\ (i=1,2)$$

sistemasining mos ravishda $z_i,(i=1,2)$ yechimlari.

3. $p_1=\frac{1}{1-\beta_1},\ p_2<\frac{1}{1-\beta_2},\ p_2m_2>1,\ y_i^0,(i=1,2)$ – nochiziqli algebraik tenglamalar

$$\begin{cases} d_{11}z_1^{m_1-1}z_2^{\alpha_1}+d_{12}+d_{13}z_1^{\beta_1-1}=0 \\ d_{21}z_2^{m_2-1}z_1^{\alpha_2}+d_{22}=0 \end{cases}$$

sistemasining mos ravishda $z_i,(i=1,2)$ yechimlari.

4. $p_1<\frac{1}{1-\beta_1},\ p_2=\frac{1}{1-\beta_2},\ p_1m_1>1,\ y_i^0,(i=1,2)$ – nochiziqli algebraik tenglamalar

$$\begin{cases} d_{11}z_1^{m_1-1}z_2^{\alpha_1}+d_{12}=0 \\ d_{21}z_2^{m_2-1}z_1^{\alpha_2}+d_{22}+d_{23}z_2^{\beta_2-1}=0 \end{cases}$$

sistemasining mos ravishda $z_i,(i=1,2)$ yechimlari.

2-natija. (8)-(9) masalaning umumlashgan yechimi $|x|\to a^{\frac{1}{2-l-n}}\tau\left(1-\frac{1+n}{2}\right)^{\frac{1}{2-l-n}}$ da quyidagi asimptotik ifodaga ega:

$$u(t,x)=z_1\left(T-t\right)^{q_1}\left(a-\frac{|x|^{2-l-n}}{\tau\left(1-\frac{l+n}{2}\right)^2}\right)^{p_1}(1+o(1)),\ v(t,x)=z_2\left(T-t\right)^{q_2}\left(a-\frac{|x|^{2-l-n}}{\tau\left(1-\frac{l+n}{2}\right)^2}\right)^{p_2}(1+o(1))$$

bu yerda $z_1,z_2,\mathrm{p}_1,\mathrm{p}_2,\mathrm{q}_1,\mathrm{q}_2$ – o‘zgarmas sonlar.

2.3-paragrafda (8), (9) masala uchun ayirmali sxema ishlab chiqilgan va hisoblash eksperimenti o‘tkazilgan. Hisoblash uchun $h=0,02$ qadam tanlangan, iteratsiya aniqligi sifatida $\varepsilon=10^{-3}$ olingan. Iteratsiya jarayoni uchun boshlang‘ich yaqinlashish sifatida (10) formuladan foydalanilgan. Sonli natijalar vizual shaklda va animatsiya bilan taqdim etildi.



3-rasm. (8) masalaning sonli yechish natijalari.

$\alpha_1=0.4,\ \alpha_2=0.5,\ \mathrm{m}_1=0.3,\ \mathrm{m}_2=0.2,\ \beta_1=3,\ \beta_2=3$

